

ISHLAB CHIQARISHDA KASB KASALLIKLARINING OLDINI OLİSH VA REABILITATSIYA TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15653348>

O.T.Fayzullayev

G.M.G'ulomova

(*Toshkent davlat texnika universiteti*)

Аннатация

Ushbu maqolada kasb kasalliklarining vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omillar tahlil qilingan, profilaktik choralarni kuchaytirish va reabilitatsiya jarayonlarini yanada takomillashtirish bilan bog'liq muammolar o'rganilgan. Shuningdek, muallif tomonidan ushbu yo'nalishda ilgari surilgan ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar maqola mazmunida o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar

kasb kasalliklari, zararli ishlab chiqarish omillari, ish o'rirlari, attestatsiya, mehnat sharoitlari, mehnatda mayib bo'lish, dastlabki tibbiy ko'rik, iqtisodiy zarar, zaharlanishlar.

Аннатация

в данной статье факторы, вызывающие профессиональные заболевания, рассматриваются проблемы, связанные с усилением профилактических мероприятий и дальнейшим совершенствованием процессов реабилитации. Также в содержании статьи нашли отражение научно обоснованные предложения и практические рекомендации, выдвинутые автором в данной области.

Ключевые слова

профессиональные заболевания, вредные производственные факторы, рабочие места, аттестация, условия труда, инвалидность на работе, первичный медицинский осмотр, экономический ущерб, отравления.

Kasb kasalliklari - bu mehnat faoliyati davomida xodimning sog'lig'iga zarar yetkazadigan, ish sharoitlari yoki ishlab chiqarish omillarining salbiy ta'siri natijasida rivojlanadigan kasalliklardir. Ular odatda uzoq muddatli ta'sir natijasida yuzaga keladi. Ular ish joyida zararli ishlab chiqarish omillari qonun hujjalarda belgilangan ruxsat etilgan maksimal qiymatlardan oshib ketganda paydo bo'ladi.

Ishlab chiqarishda kasb kasalliklari va kelib chiqish sabablari

1-jadval

Kasb kasalligi turi	Kelib chiqish sabablari
Eshitish a'zosi kasalliklari	Uzluksiz kuchli shovqin, vibratsiyali uskunalarda ishlash
Teri kasalliklari (dermatit)	Kimyoviy moddalar bilan bevosita aloqa (bo'yoqlar, kislotalar, erituvchilar)
Nafas yo'llari kasalliklari	Chang, gaz, tutun, toksik moddalar (ko'mir, sement, metall changlari)
Muskul-skelet tizimi kasalliklari	Og'ir yuk ko'tarish, noqulay holatda uzoq ishlash, takrorlanuvchi harakatlar
Ko'z kasalliklari	Yoritilishning noto'g'ri bo'lishi, ultrabinafsha yoki lazer nurlari ta'siri
Sil (tuberkulyoz)	Infektsiyalangan muhit, yomon ventilyatsiya, sog'liqni saqlash tizimi xodimlari orasida
Kimyoviy intoksikatsiya (zaharli ta'sir)	Simob, qo'rg'oshin, benzol va boshqa kimyoviy moddalar bilan uzoq ishlash
Stress va ruhiy zo'riqish	Mehnat bosimi, notinch muhit, smenali grafik, ish vaqtidagi zo'riqish

O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksiga binoan, har bir ish o'rnila mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlash ish beruvchining majburiyati ekanligi belgilab berilgan. Ish joylarida xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligini ta'minlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak xavfli va zararli omillar chastotasi oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkun. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib kasb kasalliklari soni ham turi ham ortib bormoqda. Tadqiqotning dolzarbligi ham aynan korxonalarda mehnat xavfsizligini ta'minlash, hodimlar sog'ligini saqlash, sog'lom va erkin mehnat sharoitini yaratishda, ilmiy-tadqiqot ishlarini amaliy ishlar bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan. Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak kasb kasalliklarini quyidagi diagramma orqali ko'rishimiz mumkun.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan berilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak dunyoda kasb kasalliklar soni 68-157 millionni tashkil etadi, ularning eng ko'p soni Sharqiy Tinch okeani mintaqasida (21-49 million), Janubiy Afrikada (15-35 million), Evropada (15-35 million), 13-29 million), Amerika (9

million), Afrika (6-15 million) va Sharqiy O'rta yer dengizi (3-7million). Shuningdek butun dunyo yalpi ichki mahsulotlar 4% holatda nomaqbul mehnat sharoitlari va ishdagi bahtsiz hodisalar tufayli yo'qotilgan. Ishlab chiqarish korxonalarida xodimlar sog'ligini saqlash, sog'lom va erkin mehnat sharoitini yaratish muammolarini tadbiq etish. Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarini ko'rib chiqiladi:

- Mehnat muhofasi sohasida normativ- xuquqiy va texnik xujjatlarni o'rganish va tahlil qilish;

-Ishlab chiqarish korxonalarida kasb kasalliklari masalalarida maummolarni o'rganish va takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv adabiyotlarini tahlil qilish, qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi. Inson mehnat faoliyatidagi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot ishlari eramizdan oldingi 384-322 yillarda ijod qilgan Aristotel, 460-377- yillarda yashagan

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgan dastlabki yillardan boshlab davlat bosh islohotchi tamoyili asosida mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlarini Xalqaro tashkilotlar xujjatlariga muvofiqlashtirgan xolda belgilab oldi va bu yo'ldan og'ishmay bormoqda. "Birlashgan Millatlar Tashkiloti" (BMT) „Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi“ni 1948 yil 10 dekabrda qabul qilgan. Uning 9- moddasida, "Har bir inson yashash huquqiga ega...", 23- moddasida esa "Har bir inson mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli va qulay sharoitlar huquqiga ega" deb yozilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 42-moddasida esa, "Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'limgan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega" [1] deb belgilanganli, aynan yuqorida zikr etilgan Deklaratsiyaga mos kelishining isbotidir.

Har yilning 28-aprelida butun dunyo miqyosida xalqaro mehnatni muhofaza qilish kuni keng nishonlanadi. Albatta, bu kunni nishonlashda "Xalqaro Mehnat Tashkiloti" (XMT) xizmatlari katta.

Kasb kasalliklari oqibatida keltiriladigan zararlarni tahlili yana bir muhim belgisi salbiy omillar ta'siri ishchi-hodimlarning hayoti va sog'lig'iga, moddiy va ma'naviy zarar yetkazishi, shuningdek ishlab chiqarish korxonalariga ham yuqori miqdorda zarari aniqlandi.

Respublikamizda Kasb kasalliklari ixtisoslashtirilgan klinika mavjud bo'lib, 100 o'ringa ega. Unda har yili respublikaning barcha hududlaridan 3 mingdan ortiq

bemor davolanish va reabilitatsiyadan, 33 mingdan ortiq bemor esa ambulator sharoitida tekshiruvdan o'tkaziladi. Ular zararli va xavfli omillar ta'sirida faoliyat olib borgan 80 dan ortiq asosiy ishlab chiqarish korxonalarining ishchilaridir. So'ngi bir yildagi o'tkazilgan tibbiy ko'riklar xulosalari asosida 9800 ishchi-xodimga (98%) ishga yaroqlilik ekspertiza xulosalari berildi, aniqlangan tashxislarga ko'ra 42% tekshirilganlarga zarur davolash va sog'lomlashtirish tadbirlari rejalshtirildi, 2%ga statsionar, 4%ga sanatoriy-kurortlarda davolanish uchun yuborish, 4116 ishchiga shifokor nazoratida bo'lish, 290 ishchiga sog'lig'i holatiga ko'ra yengil yoki xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining ta'siridan holi bo'lgan boshqa ishga vaqtincha o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Oxirgi yillardagi birlamchi kasb kasalliklari statistikasiga ko'ra, yer osti konlarida kremniy saqlovchi chang va mehnat sharoiti kompleks omillar ta'sirida mehnat qiluvchi ishchilarda uchraydi. Shuningdek Kasbiy kasalligi muammosi zamonaviy mexanizatsiyalash usullari va ko'mir konlarini ochiq usulda o'zlashtirish usullarida asosan ko'p qayd etilmoqda. Bu ishchilarning asosiy qismi ko'p yillik stajga ega. Ular uzoq muddat zararli mehnat sharoitida va ish joyidagi chang miqdori ruxsat etilgan me'yordan ortiq bo'lishi natijasida kasallikka chalingan.

Ishlab chiqarishda kasb kasalliklarini oldini olish va reabilitatsiya tadbirlari

2-jadval

Yo'naliшh	
Tashkiliy profilaktika	<ul style="list-style-type: none"> - Ish vaqtini to'g'ri tashkil etish (mehnat va dam olish rejimi) - Ishchilarning davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi - Xavfsizlik bo'yicha muntazam o'quvlar
Texnik profilaktika	<ul style="list-style-type: none"> - Shovqin va changni kamaytiruvchi qurilmalar o'rnatish - Himoya vositalari (niqob, qo'lqop, qulqochin) bilan ta'minlash - Ishlab chiqarish uskunalarini modernizatsiya qilish
Gigiyenik profilaktika	<ul style="list-style-type: none"> - Ish joylarining tozaligini ta'minlash - Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish - Ish kiyimlarini muntazam almashтирish va yuvish
Tibbiy reabilitatsiya	<ul style="list-style-type: none"> - Davolash muassasalarida fizioterapiya, dori vositalari - Sanatoriy-kurort muolajalari

	<ul style="list-style-type: none"> - Davolovchi jismoniy tarbiya (DJT)
Ijtimoiy reabilitatsiya	<ul style="list-style-type: none"> - Yengil ishga o'tkazish - Nafaqa va moddiy yordam ko'rsatish - Kasbga qayta tayyorlash (o'qitish)
Psixologik reabilitatsiya	<ul style="list-style-type: none"> - Psixologik maslahatlar - Ruhiy sog'lomlashtirish mashg'ulotlari - Stressni kamaytirish bo'yicha treninglar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-fevraldag'i 62-son qaroriga 10-ilovasining "Mehnatda mayib bo'lgan yoki kasb kasalligiga chalingan shaxslarning kasbiy mehnat layoqati yo'qotilishi darajasini belgilash tartibi to'g'risida" nizomida kasbiy mehnat layoqati yo'qotilishi darajasini belgilashning umumiy qoidalari tasdiqlangan. Kasbiy mehnat layoqati yo'qotilishi darajasi jabrlanganga mehnatda mayib bo'lganda yoki kasb kasalligiga chalingandan oldingi kasbiy faoliyatni bajarishni davom ettirish imkonini beradigan layoqatlar, psixofiziologik imkoniyatlar va sifatlar, ayni o'sha mazmunda va o'sha hajmda hisobga olingan holda, yoxud malaka pasayganligi, bajariladigan ish hajmi va odatdagi, maxsus tashkil etilgan ishlab chiqarish sharoitlarida va boshqa sharoitlarda mehnat og'irligi kamayishi hisobga olingan holda mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligiga duchor bo'lganlik oqibatida sog'liqqa shikastning oqibatlaridan kelib chiqib aniqlanadi va 5% dan 100% gacha darajada belgilanadi. Tasdiqlangan kasb kasalliklari ro'yxatiga muvofiq aniqlanadi. [9]

Ish joylarida mehnat sharoitlarini, mehnat jarayonlarining og'irligi va tig'izligini hamda asbob-uskunalarining jarohatlash xavflilagini baholash, zararliva xavfli ishlab chiqarish omillarini baholash, shuningdek mehnat sharoitlarini, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligini qonun hujjalarda belgilangan talablarga muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi 263- son qaroriga 1-ilovasi "Ish o'rinalarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliliyi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliliyi yuzasidan ish o'rinalarini attestatsiyadan o'tkaziladi. Mehnat sharoitlarining gigiyena normativlariga muvofiqligi baholanadi. [8] Yuqorida ta'kidlaganlarga asoslanib, quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin.

Zararli mehnat sharoitlari bilan bog'liq kasbiy kasalliklarni tashxislash, ro'yxatdan o'tkazish va oldini olishning mavjud tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kasbiy kasallik darajasini

pasaytirishga katta e'tibor qaratgan ish beruvchilarni rag'batlantirish va kasbiy kasalliklar alomatlarini erta aniqlashni yo'lga qo'yish uchun shifokorlarni rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini joriy etish zarur. Barcha xodimlarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish kerak.

O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda mehnat jarayonida insonning xavfsizligi, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlash borasida keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kasb kasalliklarining oldini olish masalasida quyidagi ishlarni amalga oshirish: mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilariga o'tkazib berilishi; mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat va jamoat nazorati kuchaytirish; barcha amalga oshirilayotgan tadbirlar eng avvalo korxona va tashkilotlarda, ish o'rinalarida mehnat sharoitlarini yaxshilash. Yuqoridaqilarni inobatga olgan holda taklif shundan iboratki, ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilish yuzasidan komissiya tuzish, komissiya tarkibiga kasaba uyushmasi, xodimlarning boshqa vakillik organlari, yuridikmaslaxatchilar kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

FAYDALANILGAN ADADIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami-T.: "Adolat", 2016.
3. G.M.G'ulomova, O.T.Fayzullayev. Ishlab chiqarishdagi jarohat va kasb kasalliklarining dolzarb muammolari va oldini olishning tashkiliy yechimi.//The multidisciplinary journal of science and technology. <http://mjstjournal.com>.1007-1012p.
4. Махматкулов Н.И. Оценка техносферной безопасности на основе математического моделирования/ /Монография: «Ворис-нашриёт», 2022, 166 с.
5. Maxmatqulov N.I., Karimov S. X. "Atrof muxit xolati va uni muxofaza qilish". Fan, muxofaza, xavfsizlik ilmiy amaliy jurnal 2019 yil. 2(3) sonli. 36–41 b.
6. В. М. Губанов, Л. А. Михайлов, В. П. Соломин Чрезвычайные ситуации социального характера и защита от них. Издательство: Дрофа; 2007г., 288 с.
7. Эшмухамедов Л. М. Охрана труда на предприятиях // Молодежь. Наука. Будущее. – 2022. – С. 160–164.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi 263- son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-fevraldagagi 62-son qarori.

10. www.ziyo.edu.uz – Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi sayti.

11. www.lex.uz